



XALQARO VALYUTA BOZORI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

MODERN TENDENCIES OF THE DEVELOPMENT OF THE INTERNATIONAL FOREIGN EXCHANGE MARKET

¹*Ataniyazov Jasurbek
Xamidovich*

¹*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Xalqaro moliya" kafedrası
mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Maqolada jahon valyuta tizimining zamonaviy holati, xalqaro valyuta bozori rivojlanishiga xos bo'lgan tendensiyalar, valyuta bozori aylanmasining geografik tarkibi va uning ishtirokchilari faoliyati hamda valyuta operatsiyalari asosiy turlarining o'zgarishi tahlil etilgan. Shuningdek, amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida jahon valyuta tizimiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish asosida mamlakatimizning xalqaro valyuta bozori ishtirokchisi sifatidagi rolini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari taklif etilgan.

Eng. - The article analyzes the modern state of the world currency system, trends specific to the development of the international currency market, the geographical structure of the currency market circulation and the activities of its participants, as well as the changes in the main types of currency operations. Also, on the basis of the conducted research, the priority directions for strengthening the role of our country as a participant in the international currency market were proposed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *valyuta, xalqaro valyuta bozori, valyuta kursi, forward va spot operatsiyalari, valyuta svoplari, option, moliyaviy instrumentlar.*
❖ *currency, international currency market, exchange rate, forward and spot transactions, currency swaps, options, financial instruments.*

Kirish.

Zamonaviy jahon valyuta bozori, asosan, yetakchi valyutalar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar, qarama-qarshiliklar va inqirozli vaziyatlarga qaramay, nisbatan jadal rivojlanmoqda. Bu jarayonga jahon iqtisodiyotining globallashuvi sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ko'pgina mamlakatlarda valyuta qonunchiligining liberallashuvi va valyuta sohasiga davlat ta'sirining zaiflashishi milliy valyuta bozorlaridagi operatsiyalar hajmining ortishiga sabab bo'ldi. Shu boisdan zamonaviy sharoitda

jahon valyuta tizimi barqarorligini, shuningdek xalqaro valyuta bozoridagi operatsiyalar uzluksizligini hamda valyuta bozori ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Mazkur jarayonda, turli bozor omillarining ta'sirini inobatga olgan holda xalqaro valyuta munosabatlarini rivojlantirishning zaruriy sharoitlarini aniqlash va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish, valyuta bozorlaridagi ehtimoliy risklarni pasaytirish muhimdir.

Bugungi kunda bir qator milliy moliya bozorlarining umumiyligida global valyuta bozorining shakllanganligi va ular holatida sodir bo'ladigan o'zgarishlarning jahon valyuta bozori holatiga keskin ta'sir etishi valyuta bozorini barqarorlashtirishga qaratilgan yo'nalishlarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatib bermoqda. Shu sababli globallashuv sharoitida xalqaro valyuta bozori barqarorligini ta'minlash hamda mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro valyuta munosabatlari rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratish jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Jahon valyuta tizimi, valyuta bozoridagi o'zgarishlar hamda uning rivojlanish xususiyatlari, valyuta bozoriga ta'sir etuvchi omillar ko'plab xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan maxsus ilmiy tadqiqot sifatida o'rganilgan bo'lib mazkur tadqiqotlar muhim ilmiy yondoshuvlarga egadir. Jumladan, P.И. Хасбулатовning (2014) ilmiy tadqiqotlari globallashuv jarayonining faollashuvi fonida xalqaro valyuta bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari hamda jahon valyuta tizimidagi o'zgarishlar va ularning global iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Uning tadqiqotlarida asosiy e'tibor xalqaro moliya arxitekturasini isloh etish orqali jahon valyuta tizimini barqarorlashtirishga qaratilgan [1].

Л.Н. Красавина (2011) va С.Р.Моисеев (2017) xalqaro valyuta bozoridagi operatsiyalarning rivojlanish xususiyatlarini hamda zamonaviy jahon valyuta tizimini institutsional jihatdan isloh etishning yo'nalishlarini, shuningdek valyuta bozorlariga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etishgan. Ushbu mualliflar valyuta bozorida operatsiyalarni amalga oshirish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar va valyuta kursining iqtisodiy o'sishga ta'siri yuzasidan muhim yondoshuvlarni ilgari surishgan [2, 3].

M. David (2009) va Leonardo (2015) Auernheimerlar xalqaro valyuta bozori tarkibi va undagi qo'llaniladigan moliyaviy instrumentlar rivojlanishi borasida tadqiqotlar olib borgan holda global valyuta bozoridagi beqarorlik holatlarining mamlakatlar moliya tizimiga ta'sirini oldini olish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishgan [4, 5].

P. Krugman, M. Obstfeld, M. Melitzlar (2018) xalqaro valyuta bozori tarkibi, valyuta operatsiyalari va valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar hamda ularni tartibga solish, shuningdek xalqaro valyuta bozorida risklarni boshqarish va muvozanatni ta'minlashning samarali usullari borasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borishgan [6].

Pierre-Olivier Gourinchas, H. Rey, M.Sauzetlar (2019) jahon valyuta tizimi va unda yetakchi valyutalarning roli, xalqaro valyuta bozoridagi operatsiyalarning rivojlanishi hamda valyuta risklarini boshqarish, shuningdek xalqaro valyuta munosabatlarini samarali tashkil etish va jahon valyuta tizimi barqarorligini oshirish masalalari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan [7].

М. Эскиндаров va Е. Звонова (2019) tomonidan zamonaviy xalqaro valyuta bozori tarkibi, ishtirokchilari va uning rivojlanish tendensiyalari, valyuta operatsiyalarini tashkil etish shakllari hamda xalqaro valyuta bozorida moliyaviy innovatsiya va texnologiyalarning qo'llanilishi tadqiq etilgan [8].

Щеголева (2021) valyuta bozori holati, valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmi hamda jahon valyuta tizimini isloh etishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan [9].

В.Н. Лиховидов (2014) va П.А.Крюкова (2014) xalqaro valyuta bozorining fundamental tahlili hamda valyuta bozorida savdo operatsiyalarini tashkil etish va tartibga solish masalalarini tadqiq etishgan [10, 11].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan N.X. Jumayev (2018) va E.A. Xoshimovlar (2022) jahon valyuta bozoridagi

operatsiyalarning tarkibi va rivojlanish xususiyatlari, valyuta siyosatidan to'lov balansini muvozanatlashtirish, milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash, raqamli iqtisodiyot sharoitida valyuta siyosatini takomillashtirish kabi masalalarni tadqiq etishgan [12, 13].

Global moliya tizimidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda xalqaro valyuta bozorining rivojlanish xususiyatlarini aniqlash dolzarb hisoblanadi. Chunki hozirgi davrda xalqaro valyuta bozori qator omillar ta'siri natijasida keskin o'zgarishlarga uchramoqda. Shu sababli jahon iqtisodiyotidagi konyunkturaviy o'zgarishlar sharoitida xalqaro valyuta bozori holatini baholash hamda uni barqarorligini ta'minlash yo'nalishlarini aniqlash muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Globallashuv sharoitida jahon valyuta tizimi barqarorligini ta'minlashda valyuta bozori va undagi operatsiyalar holati, valyuta bozori ishtirokchilari faoliyatini tartibga solish va muvofiqlashtirish darajasi muhim o'rin tutadi. Shu boisdan ilmiy maqolada xalqaro valyuta bozori holati va undagi zamonaviy o'zgarishlar hamda unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish, tadqiqot natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induktsiya va deduktsiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash va iqtisodiy-statistik usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi yillarda jahon valyuta tizimi chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirdi, bu davlatlararo o'zaro munosabatlarning tabiati, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning biznes yuritish usullari va iqtisodiy aloqalarning davom etayotgan globallashuvi fonida keng ko'lamli xalqaro lashuv jarayonlari bilan bog'liq. Bunday sharoitda jahon valyutalarining xalqaro hisob-kitoblarga xizmat ko'rsatishdagi roli va ahamiyatini qayta taqsimlash tendensiyasi kuchaymoqda. Muammo shundaki, ba'zi jahon valyutalari zaiflashib, boshqalari kuchaygani sari jahon valyuta tizimining barqarorligi pasayadi, ayni paytda uning zaifligi va inqirozlarga moyilligi kuchayib, milliy iqtisodiyotni beqarorlashtiradigan risklarni keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan jahon valyutalarining ishlash qonuniyatlarini o'rganish va jahon valyuta tizimini barqarorlashtirish yo'nalishlarini aniqlash dolzarb va amaliy ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xalqaro hisob-kitoblar banki (Bank for International Settlements) ma'lumotlariga ko'ra, 1995-yilda jahonda konversion operatsiyalarning bir kunlik yalpi hajmi 1190 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 7,5 trln. AQSh dollariga yetdi.

1-jadval

1995–2022-yillarda jahon valyuta bozorining kunlik aylanmasi hajmi (mlrd. AQSh dollarida) [14]

Yillar	1995	1998	2001	2004	2007	2010	2013	2016	2019	2022
Aylanma hajmi	1190	1527	1239	1934	3324	3973	5357	5067	6590	7506

2022-yil aprel oyida valyuta bozorlaridagi savdo o'rtacha 7,5 trln. AQSh dollarini tashkil etgan holda 2019-yilning shu davridagiga nisbatan qariyb 0,9 trln. AQSh dollariga oshgan. Mazkur holat, xalqaro valyuta bozoridagi operatsiyalar hajmining oshganligi

va uning ishtirokchilari faoliyatining faollashganligi bilan izohlanadi.

Ta'kidlash joizki, xalqaro valyuta bozorining kunlik aylanmasi hajmi tovarlar, xizmatlar va aksiyalarning jahon savdosi hajmidan o'n baravar ko'pdir. Xalqaro valyuta bozoridagi operatsiyalar hajmining ortib

borishi jahondagi kapital harakatiga, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'zgarishiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat, asosan yirik korporatsiyalarning spekulativ operatsiyalardan foyda olish maqsadida valyuta bozorida faol ishtirok etish borasidagi faoliyati orqali namoyon bo'ladi [15].

Ma'lumki, xalqaro moliya munosabatlari, shuningdek, valyuta bozorida dunyoning barcha mamlakatlari ishtirok etadilar, lekin xalqaro valyuta bozorida ayrim mamlakatlarning ishtirok etish ko'lami boshqalariga nisbatan yuqori salmoqni tashkil etadi. Buni quyidagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

2-jadval

Jahon valyuta bozori aylanmasining geografik tarkibi (foizda) [14]

Ko'rsatkichlar	2013-yil	2016-yil	2019-yil	2022-yil
Jahon bo'yicha	100,0	100,0	100,0	100,0
Buyuk Britaniya	40,8	36,9	43,1	38,1
AQSh	18,9	19,5	16,5	19,4
Singapur	5,7	7,9	7,6	9,4
Yaponiya	5,6	6,1	4,5	4,4
Gonkong	4,1	6,7	7,6	7,1
Shveytsariya	3,2	2,4	3,3	3,6
Boshqalar	21,7	20,5	17,4	18

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2022-yil aprel holatiga valyuta aylanmasida yetakchilikni Buyuk Britaniya egallagan bo'lib, jahon valyuta bozori aylanmasidagi ulushi 38,1 foizni tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda salmog'iga ko'ra, AQSh – 19,4 foiz, Singapur – 9,4 foiz, Gonkong – 7,1 foiz, Yaponiya – 4,4 foiz, Shveytsariya – 3,6 foizni tashkil etgan. Buyuk Britaniyaning jahon valyuta bozori aylanmasidagi ulushining yuqoriligi Londonning global moliyaviy markaz sifatidagi o'rnining mustahkam ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Buyuk Britaniya valyutasi ko'plab afzalliklarga ega, jumladan AQSh dollariga nisbatan kamroq riskka tortilgan. Biroq, bitta muhim funksiyani bajarish, ya'ni dunyo mamlakatlarining likvidlikka bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun Britaniya valyutasining AQSh valyutasiga nisbatan qobiliyati birmuncha pastdir.

Jahon valyuta bozorida birjadan tashqari operatsiyalar ishtirokchilari o'z ishtiroki darajasiga bog'liq holda uchta toifaga ajratiladi. Birinchidan, eng faol ishtirokchilar "hisobot taqdim etuvchi dilerlar" hisoblanadi. Ushbu guruh ishtirokchilari tomonidan amalga

oshirilgan valyuta operatsiyalarining ulushi barcha boshqa ishtirokchilar operatsiyalarining qariyb yarmini tashkil etgan. Bulara dilerlararo bozorda ishtirok etuvchi korporatsiyalar, hukumatlar va nohukumat tashkilotlari kabi yirik mijozlar bilan faol biznes olib boruvchi fond birjalari, yirik tijorat va investitsion banklar kiradi.

Birjadan tashqari valyuta bozori ishtirokchilarining ikkinchi toifasiga hisobot beruvchi dilerlarga kirmaydigan boshqa moliyaviy tashkilotlar kiradi. Ular tartibga ko'ra, valyuta bozorlarida va foizli derivativlar bozorlarida oxirgi iste'molchilar sifatida ishtirok etadilar. Bu turdagi ishtirokchilar tarkibiga Markaziy banklar, suveren fondlar, xalqaro moliya institutlari, yirik bo'lmagan tijorat va investitsiya banklari, xedj-fondlar, pul bozori fondlari, lizing va sug'urta kompaniyalari kabilar kiradi. Ushbu kategoriya odatda jahon valyuta bozorining 20 foiziga to'g'ri keladi.

Uchinchi toifaga valyuta resurslarining nomoliyaviy oxirgi iste'molchisi hisoblangan birinchi va ikkinchi toifaga kirmaydigan

istalgan kontragentlar va nomoliyaviy sektor mijozlari kiradi.

3-jadval

2001–2022-yillarda jahon valyuta bozorining ishtirokchilar bo'yicha tarkibi va aylanmasi
[14]

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2001	2004	2007	2010	2013	2016	2019	2022
Jahon valyuta bozori aylanmasi, mlrd. AQSh doll., jumladan, ishtirokchilar toifasi bo'yicha:	1 239	1934	3 324	3 971	5 345	5067	6590	7506
- hisobot taqdim etuvchi dilerlar	719	1018	1 392	1 544	2 070	2121	2521	3460
- boshqa moliyaviy institutlar	346	634	1 339	1 896	2 809	2564	3595	3621
- nomoliyaviy sektor mijozlari	173	276	593	532	465	382	473	425
Umumiy aylanmadagi ulushi, foizda:								
- hisobot taqdim etuvchi dilerlar	58,1	52,6	41,9	38,9	38,7	41,9	38,3	46,1
- boshqa moliyaviy institutlar	27,9	32,8	32,8	47,7	52,6	50,6	54,6	48,2
- nomoliyaviy sektor mijozlari	14,0	14,3	17,8	13,4	8,7	7,5	7,2	5,7

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ishtirokchilarning asosiy toifasi hisoblangan hisobot taqdim etuvchi dilerlarning umumiy aylanmasi hajmi 2001–2022-yillarda mutloq summada 1239 mlrd. AQSh dollaridan 3460 mlrd. AQSh dollarigacha oshgan, uning jami valyuta bozori hajmidagi ulushi esa 58,1 foizdan 46,1 foizga kamaygan. Ushbu davrda ikkinchi guruh ishtirokchilarining aylanmasi 346 mlrd. AQSh dollaridan 3621 mlrd. AQSh dollariga qariyb o'n ikki marta, jami aylanmadagi ulushi esa 27,9 foizdan 48,2 foizga oshgan. Mazkur holat, keyingi yillarda jahon valyuta bozorida ikkinchi toifaga kiruvchi ishtirokchilarning valyuta operatsiyalarini amalga oshirishdagi faoliyatining faollashganligidan dalolat beradi.

Jahon valyuta bozorining asosiy ishtirokchilari biri sifatida rivojlangan vakillik munosabatlari va ko'plab filiallari tarmoqqa ega bo'lgan yirik banklar, ya'ni transmilliy banklar (TMB) va transmilliy kompaniyalar (TMK) namoyon bo'ladi [16]. Hisob-kitoblarga ko'ra, ularning ulushi qariyb 40–45 foizni tashkil etadi. Euromoney jurnalining ma'lumotlariga ko'ra, keyingi yillarda AQSh, Shveytsariya, Germaniya, Angliya kabi mamlakatlarning yirik moliyaviy

konglomeratlari jahon valyuta bozorida faol ishtirok etmoqda.

Nomoliyaviy tashkilotlar odatda, faoliyati banklar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan TMKlar, masalan, General Motors, Nestle va boshqalarni o'z ichiga olgan holda, ularning ulushi 5–6 foizdan ortiqni tashkil etadi. Chunki TMKlar valyuta sohasidagi faoliyatini optimallashtirish maqsadida o'z tarkibiga (ko'p hollarda jahon valyuta bozori ishtirokchilarining ikkinchi toifasiga kiruvchi) banklar va nobank moliyaviy tashkilotlarni jalb etish borasida chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdalar.

Uchinchi guruh ishtirokchilarining jami aylanmasi mutloq hajmda 173 mlrd. AQSh dollaridan 425 mlrd. AQSh dollariga oshgan, uning salmog'i esa 14,0 foizdan 5,7 foizga pasaygan. Yuqoridagilar asosida qayd etish mumkinki, yirik dilerlardan turli fondlar, kompaniyalar va kichik banklar singari faoliyati unchalik yirik bo'lmagan ishtirokchilarga bitimlarni qayta taqsimlash bo'yicha tendensiyalar kuzatilmoqda.

Valyuta bozorining alohida instrumentlari bo'yicha tarkibini quyidagi 4-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. Bunga ko'ra jami bozor aylanmasida forward

operatsiyalari 15,5 foiz, spot operatsiyalari 28,0 foiz, valyuta svoplari 50,8 foiz, opsiya va boshqa instrumentlar esa, 4,1 foiz. Jami operatsiyalar hajmida eng yuqori salmog'ni valyuta svoplari tashkil etgan bo'lsa, eng kam salmog' derivativlarga to'g'ri kelgan. Hosila moliyaviy instrumentlar bozori jahon moliya tizimining rivojlanayotgan segmentlaridan biri

hisoblanadi. Derivativlar bozori barqaror faoliyatining asosiy shart-sharoitlaridan biri uni tartibga solishning samarali tizimi hisoblanadi, bu tizim bozorning barcha ishtirokchilarini qamrab olgan holda o'zlarining professional faoliyatini amalga oshirishni ta'minlaydi [17].

4-jadval

FOREX bozorida valyuta operatsiyalarining asosiy turlari dinamikasi (mlrd. AQSh dollari va foizda) [14]

Yillar	2007		2010		2013		2016		2019		2022	
Instrumentlar	hajmi	%	hajmi	%	hajmi	%	hajmi	%	hajmi	%	hajmi	%
Jami	3 324	100	3 971	100	5 357	100	5067	100	6590	100	7506	100
Spot bitimlari	1 005	30	1 488	37	2 047	38	1652	33	1987	30,2	2104	28,0
Forvard bitimlari	362	11	475	12	679	13	700	14	999	15,2	1164	15,5
Valyuta svoplari	1 714	52	1 759	44	2 240	42	2378	46	3201	48,6	3810	50,8
Derivativlar	31	1	43	1	54	1	82	2	108	1,6	124	1,7
Opsionlar va boshqalar	212	6	207	5	337	6	254	5	294	4,5	304	4,1

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning real sektori rivojlanishi hamda moliya va valyuta bozorlari o'rtasida tizimli bog'liqlik mavjud. Valyuta bozorlarida eng ko'p ishlatiladigan va vaqt o'tishi bilan o'z qiymatini yo'qotmagan valyuta AQSh dollari hisoblanadi. Agar 1992-yilda xalqaro valyuta bozoridagi bitimlarning 82 foizida AQSh dollaridan foydalangan bo'lsa, 2022-yilda mazkur

ko'rsatkich 88 foizni tashkil etgan, o'tgan yillar davomida AQSh dollari o'zining yetakchilik rolini saqlab kelgan. Bu qisman dollarning boshqa valyutalar kross-kurslarini hisoblashdagi yetakchi roli, shuningdek, jahon valyuta bozori aylanmasining 2/3 qismiga teng bo'lgan svop bitimlarida 95 foizni tashkil etganligi bilan bog'liqdir.

5-jadval

Valyuta bozoridagi operatsiyalarda yetakchi valyutalarning ulushi (foizda) [14]

	1992	1995	1998	2001	2004	2007	2010	2013	2016	2019	2022
USD	82,0	83,0	87,0	90,4	88,7	86,3	85,0	87,0	88,0	88,0	88,0
EURO	-	-	-	37,6	36,9	37,0	39,0	33,0	31,0	32,0	31,0
DEM	40,0	37,0	30,0	-	-	-	-	-	-	-	-
FRF	4,0	8,0	5,0	-	-	-	-	-	-	-	-
JPY	23,0	24,0	22,0	22,7	20,2	16,5	19,0	23,0	22,0	17,0	17,0
GBP	14,0	10,0	9,0	13,2	16,9	15,0	13,0	12,0	13,0	13,0	13,0
CHF	9,0	7,0	7,0	6,1	6,0	6,8	6,0	5,0	5,0	5,0	5,0
CAD	3,0	3,0	4,0	4,5	4,2	4,2	5,0	5,0	5,0	5,0	6,0
AUD	2,0	3,0	3,0	4,2	5,9	6,7	8,0	9,0	7,0	7,0	6,0
HKD	1,1	0,9	1,0	2,3	1,9	2,8	2,0	1,0	2,0	4,0	3,0
SGD	0,3	0,3	1,0	1,1	1,0	1,2	1,0	1,0	2,0	2,0	2,0
Boshqa valyutalar	21,6	23,8	31,0	17,9	18,3	23,5	22,0	24,0	25,0	27,0	29,0
Jami	200	200	200	200	200	200	200	200	200	200	200

Xalqaro valyuta bozoridagi operatsiyalarda boshqa valyutalar, jumladan yevro 31 foizni, yena 17 foizni, funt sterling 13 foizni, Shveysariya franki 5 foizni, Avstraliya dollari 6 foizni, Kanada dollari 6 foizni va Gongkong dollari 3 foizni tashkil etgan.

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, yevroning muomalaga kiritilishi bilan yevrohududga kirgan mamlakatlar valyutalarining oldingi ulushi bilan bog'liq holda jahon valyuta bozoridagi operatsiyalardagi ulushi yuqori salmog'ni tashkil etdi. 2022-yil holatida yevroning valyuta bozoridagi operatsiyalardagi ulushi 31 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2001-yildagi ko'rsatkichga nisbatan pasaygan. Mazkur holat boshqa valyutalar, jumladan Avstraliya, Kanada, Gongkong va Singapur dollari hamda boshqa ayrim valyutalar ulushining oshishi, ya'ni ularning valyuta operatsiyalarida qo'llanilishining kengayishi bilan izohlanadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, valyuta operatsiyalarida yevroning ulushi AQSh dollaridan keyingi yuqori salmog'ni tashkil etgan bo'lib, mazkur jarayonda evrohudud mamlakatlarining jahon iqtisodiyotidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarda tutgan roli va yevroning xalqaro zahira valyutasi sifatidagi mavqeining mustahkamligi muhim ahamiyat kasb etadi [18].

Jahon valyuta bozoridagi operatsiyalarda ulushi bo'yicha keyingi yuqori salmog'ni 17 foiz bilan Yaponiya valyutasi yena tashkil etgan, bu holat hozirgi kunda Yaponiyaning so'zsiz ravishda jahon iqtisodiyotidagi o'rnining mustahkamligi va iqtisodiy jihatdan barqarorligi bilan izohlanadi. Keyingi uch yil ichida yenaning ulushi sezilarli darajada pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan, chunki yenaning valyuta bozoridagi ishtiroki asosan kapital oqimining erkinlashtirilishi hisobiga ta'minlanadi. Shu sababli, yenaning valyuta bozorida ishtirok etish salmog'i Nikkei Dow harakatiga, qimmatli qog'ozlar bozori va ko'chmas mulk bozoridagi holatning

o'zgarishiga juda ta'sirchan hisoblanadi. Ushbu valyutadagi asosiy savdo markazlari Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va AQShga tegishlidir. Shunga qaramay, amalda yena butun dunyo bo'ylab har kuni valyuta operatsiyalarida keng qo'llaniladigan asosiy valyutalardan biri hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Jahon valyuta tizimi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlarini tadqiq etish, ushbu tizimining rivojlanishi fonida xalqaro valyutalarning roli va ahamiyatida ham o'zgarishlar ro'y berayotganligini ko'rsatmoqda. Jahon valyuta tizimining evolyutsiya jarayonlari ba'zi valyutalarning zaiflashishi va boshqalarining mustahkamlanishi bilan birga, beqarorlik holatining kuchayishi hamda uning jahon iqtisodiyoti va mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga salbiy ta'siri ko'plab inqirozlar orqali namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan milliy iqtisodiy tizimlarni barqarorlashtirish yo'nalishida jahon valyuta tizimini yanada rivojlantirish yo'nalishlarini o'rganishning dolzarbligi ortib bormoqda.

Zamonaviy valyuta tizimining beqarorligi va boshqa muammolariga e'tibor qaratgan yetakchi jahon ekspertlari uning asosiy tamoyillarini takomillashtirishning ko'plab variantlarini ko'rib chiqadilar. Xususan, taklif etilayotgan ssenariyalardan biri bu AQSh dollarining hukmronligidan voz kechish va xalqaro hisob-kitoblarda yevro va Xitoy yuanidan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan. Shuningdek, jahon valyuta tizimining tamoyillarini modernizatsiya qilish muammosining dolzarbligi an'anaviy valyutalar bilan bir qatorda global iqtisodiy miqyosda qo'llanilayotgan elektron (raqamli) valyutalarning tarqalishi sharoitida ortib bormoqda.

Jahon valyuta tizimining evolyutsiyasi va tarkibiy tuzilmasini tadqiq etish orqali shuni ta'kidlash mumkinki, uning element va mexanizmlari faoliyati jahon valyutalarining

tartibli muomalasini va ulardan foydalanishni ta'minlashga qaratilgan. Jahon valyutalarining asosiy xususiyatlari ularning davlat va xususiy sektorda hisob-kitoblar, to'lov vositalari va jamg'arish vositalari sifatida keng qo'llanilishidir. Bu jahon valyutalari muomalasining intensivligini belgilaydi.

Dunyoda ayrim jahon valyutalaridan foydalanish tendensiyalari turli omillar, xususan, ularning kurslarining o'zgarishi bilan belgilanadi. Asosiy jahon valyutalari kurslarining dinamizmi yevro, funt, yena barqarorligi iqtisodiy omillar, birinchi navbatda emitent mamlakatlarning kuchli iqtisodiyoti bilan ta'minlanganligini ta'kidlash imkonini beradi. Shu bilan birga, stavkalarining o'zgarishi talab va taklif ta'sirida sodir bo'ladi va shu sababli nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy omillar, shuningdek, bozorga kelayotgan signallar va boshqalar ta'siri bilan belgilanadi.

AQSh dollarining kursi xususida to'xtaladigan bo'lsak, uning o'zgarishi asosan AQShning iqtisodiy rivojlanish traektoriyalari va boshqa mamlakatlarning moliyaviy rivojlanish yo'nalishlaridagi tafovutlar bilan bog'liq. Dunyodagi yetakchi davlatlarning tashqi nomutanosibligining kuchayishi jahon valyuta kurslarining o'zgaruvchanligining kuchayishi muammosini keltirib chiqaradi, buning natijasida jahon valyutalaridan foydalanadigan ko'plab mamlakatlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada o'zgarib, milliy iqtisodiyotlar barqarorligini buzadi.

Yuqoridagi tendensiyalarni hisobga olgan holda, mamlakatimizning xalqaro valyuta bozori ishtirokchisi sifatidagi rolini mustahkamlash maqsadida quyidagi ustuvor yo'nalishlarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1. Tashqi iqtisodiy shartnomalar uchun qiymat va to'lov vositasi sifatida, shuningdek, rasmiy valyuta zahiralarining tarkibiy qismi sifatida AQSh dollariga bog'liqlikni kamaytirish;

2. Boshqa valyutalardan, birinchi navbatda, yevro va Xitoy yuanidan foydalanishni kengaytirish orqali makro va mikro darajada valyutani diversifikatsiya qilish;

3. Milliy moliyaviy institutlarning xalqaro kapital bozoriga integratsiyalashuvini kuchaytirish;

4. Makroiqtisodiy siyosatni barqarorlashtirish borasidagi chora-tadbirlarni faollashtirish, birinchi navbatda eksport salohiyatini oshirish hisobiga milliy valyuta barqarorligini mustahkamlash;

5. Tashqi to'lovlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan valyuta risklarini oldini olish va boshqarish usullaridan foydalanishni kengaytirish.

Ushbu ustuvor vazifalarni amalga oshirish jahon valyuta bozori rivojlanishining mavjud tendensiyalariga moslashishni ta'minlashga va global valyuta inqirozlarining salbiy oqibatlarini bartaraf etishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хасбулатов Р.И. *Международные финансы: учебник для магистров* / Р.И. Хасбулатов. – Москва: Издательство Юрайт, 2014. – 567 с.
2. Красавина Л. Н. *Тенденции и перспективы реформы мировой валютной системы* // Век глобализации. – 2011. – №1(7). – С. 29-43.
3. Мoiseева С.Р. *Центральный банк и политика валютного курса*. – М.: Дело, 2017. – 624 с.
4. David M. Weiss. *Financial Instruments: Equities, Debt, Derivatives, and Alternative Investments*. Penguin Group US, on 23 July, 2009. – 384 p.
5. Leonardo Auernheimer. *International Financial Markets the Challenge of Globalization*. / Edited by Leonardo Auernheimer. – 2015. – 336 p.

6. Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc Melitz. *International Finance: Theory and Policy*, Global Edition 11th Edition. Pearson. 2018. 468 p.
7. Gourinchas P. O., Rey H., Sauzet M. *The international monetary and financial system* // *Annual Review of Economics*. – 2019. – T. 11. – №. 1. – P. 859-893.
8. Эскиндаров М., Звонова Е. *Мировые финансы. Учебник*. – М.: КноРус, 2019. – 424 с.
9. Щеголева Н.Г. *Валютный рынок и валютные операции: учебник для вузов*. М.: Издательство Юрайт, 2021.
10. Лиховидов В.Н. *Фундаментальный анализ мировых валютных рынков* / В.Н.Лиховидов. - М., 2014. - 90 с.
11. Крюков П.А. Торговые операции на валютном рынке Forex как финансовые инвестиции // *Проблемы учета и финансов*. 2014. №3 (15). С. 52.
12. Jumayev N.X., Akbarov H.M. *Jahon valyuta tizimining rivojlanishi bosqichlari va yangi innovatsion yo'nalishlari*. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2018-y.
13. Xoshimov E.A. *Jahon valyuta bozoridagi operatsiyalarning tarkibi va rivojlanish xususiyatlari*. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №4, iyul-avgust, 2015-y.
14. Triennial Central Bank Survey: Global foreign exchange market turnover in 2022 / Bank for International Settlements. April, 2022.
15. Jumaev N.X., Ataniyazov J.X. *Foreign direct investments as a factor of increasing competitiveness of the economy*. *International Journal of Economics, Commerce and Management*. United Kingdom. Vol. VI, Issue 11, November 2018. Impact Factor: 5.13. P. 217-229.
16. Бодиенкова В.С., Десятниченко Д.Ю., Кондюкова Е.С. *Влияние транснациональных корпораций на мировую экономику* // *Экономические отношения*. – 2017. – Том 7. – № 3. – С. 269-278.
17. Azizov, U. and Ataniyazov, J. (2019) "Reforming the global financial architecture and international financial system in the context of globalization", *International Finance and Accounting*: Vol. 2019: Iss. 5, Article 1.
18. Michael Melvin, Stefan Norrbin. *International Money and Finance*. Academic Press, 9th edition (April 13, 2017). 344 p.